

Ziyoratdagi ma'rifat



06.02.2023

Ziyoratdagi ma'rifat

Zangiota ("qora ota") – shayx terisining rangi tufayli xalq orasida olgan taxallusidir. Bu buyuk so'fiy hayot davridayoq (XII asr oxiri – XIII asr boshlari) juda mashhur bo'lib, kelib chiqishi taniqli arab urug'idan bo'lgan. Majmua ham butun O'zbekistondan keluvchi musulmonlar uchun ziyoratgoh hisoblanadi. Bugun ushbu ziyoratgohga "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti jamoasi va talaba-yoshlari ham tashrif buyurishdi. Talabalar katta va chiroyli bog'ga ega bo'lgan hovliga kirishdi. Ular yodgorlik majmuasi maqbara, minora, masjid, Zangiotaning rafiqasi Anbar Bibi maqbarasi joylashgan qabristoni ham ziyorat qilishdi. Darhaqiqat, Zangi otaning butun umri Movarounnahr xalqlari hayotining og'ir va dahshatli davrida kechgan.



Mo'g'ul istilochilari mamlakatni xonavayron qilib, xalq ommasini qullik iskanjasiga solgan bir paytda Zangi ota hamda uning izdoshlari xalq orasida vatanparvarlik va mehnatsevarlik, adlu insof, poklik hamda yaxshilik, mehr-shafqat va diyonat kabi umuminsoniy g'oyalarni targ'ib etgan. Zangi ota ziyoratgohi azaldan xalqimizning e'zozli ziyoratgohi bo'lgan bo'lsa, endilikda bu yerda zamonaviylik nishonalari uyg'unlashib, yurtdoshlarimizning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan dargohga aylanmoqda. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", degan tamoyilni yodga olsak, bu joyning asl qadri yorqin namoyon bo'ladi. Talabalar bu ziyoratdan juda mamnun bo'lib, ushbu sayoxatni tashkil qilgan fakultet dekan muovini, fakultetda xotin-qizlar masalari buyicha dekan maslaxatchisi xamda fakultet tyutorlariga tashakkurlar aytishdi.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova axboroti